

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MA‘NAVYI-MA‘RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Salohiddinova Zumrad Murodullayevna**

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib topish, g‘oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirishi, yuksak axloqiy fazilatlariga ega qilishi, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan yetuk, mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlashi lozim. Bu vazifalarni hal qilishda o‘qituvchi muhim rol o‘ynaydi. Chunki u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.*

***Tayanch so‘zlar:** maktab, tarbiyaviy vazifa, dunyoqarash, axloqiy fazilat, ma‘naviy-ma‘rifiy jihat, pedagogik asos.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДУХОВНО- ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация.** В этой статье школа должна формировать мировоззрение молодого поколения, воспитывать его идейно и политически, приобретать высокие нравственные качества, взрастить духовно и интеллектуально, готовить его к труду и сознательному выбору профессии. Большую роль в решении этих задач играет педагог. Потому что он организует и руководит работой, направленной на выполнение учебных задач в условиях классной комнаты.*

***Ключевые слова:** школа, воспитательная миссия, мировоззрение, нравственная добродетель, духовно-воспитательный аспект, педагогическая основа.*

## PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF ORGANIZING SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE PRIMARY SCHOOL

***Annotation.** In this article, the school should form the worldview of the young generation, train it ideologically and politically, acquire high moral qualities, mature spiritually and intellectually, and prepare it for work and a conscious choice of profession. The teacher plays an important role in solving these tasks. Because he organizes and manages work aimed at the implementation of educational tasks in a classroom environment.*

***Keys words:** school, educational mission, worldview, moral virtue, spiritual and educational aspect, pedagogical basis.*

Hozirgi davr talabi maktabdagi o'quv - tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo'yimoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib topish, g'oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirishi, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilishi, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetuk, mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlashi lozim. Bu vazifalarni hal qilishda o'qituvchi muhim rol o'ynaydi. Chunki u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Unda o'qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshiradi. Bu vazifalarni bajarayotganda u yolg'iz o'zi emas, balki shu sinfda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi[2; 221-b.]. O'quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilar bilimiga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini o'stirish, har bir o'quvchining individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarni shakllantirish o'qituvchining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham alohida e'tibor beradi.

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining diqqat markazida o'quvchilarning darsning yuqori o'zlashtirishlarini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'ib turadi. Orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagi o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish ishlarini yo'naltirib turadi. Ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini hamda maktab miqyosida uyushtirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. O'qituvchi shu sinfda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishiladi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. O'qituvchining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'quvchiga o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. O'qituvchi asosiy tarbiyachi, O'quvchilar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo'ganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o'ynaydi.

Darhaqiqat, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, vatanimizning ongli bunyodkorlarini tarbiyalash, ularda milliy urf -

odatlarimizga, an'analarimizga va udumlarimizga hurmat hissini shakllantirish milliy va umumbashariy qadriyatlarimizni chuqur anglashga o'rgatish, ularni hurmat qilish, millatlararo totuvlik tuyg'usini singdirish, ularda baynalmillik, yuksak ma'suliyat hissini tarbiyalashni davr taqozo etmoqda.

Ma'lumki, zamonaviy pedagogik ta'limning asosiy vazifalaridan biri- bu ta'lim mazmunini milliylikka yo'naltirish asosida o'quvchilarda yangicha fikrlash va ijodiy dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan qiyoslanadi[1; 127-b.]

O'quvchilarda, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yangicha pedagogik tafakkurni shakllantirishning faol shakllari bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim, xususan, boshlang'ich ta'lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish aniqlanadi. Shuningdek, bu jarayonda quyidagi muhim vazifalarni hal etish nazarda tutiladi:

- o'quvchilarning umummilliy madaniy saviyasini rivojlantirish;
- o'quvchilarning ijtimoiy faolligini o'stirishda milliylik va baynalmillik tamoyilidan foydalanish;
- o'quvchilarni boshqa millat vakillariga nisbatan hurmati va do'stona munosabatini shakllantirish;
- o'quvchilarni baynalmillal ruhda tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish.

Mazkur vazifalarni hal etish uchun ta'lim-tarbiya tizimini ishlab chiqish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, boshlang'ich sinflardagi sinfdan tashqari ishlar jarayonini demokratlashtirish asosida mazmuniga baynalmillal ruhni singdirish zaruriy chora-tadbirlardan sanaladi.

O'zni kelganda "Tarbiya" tushunchasiga alohida to'xtalsak, tarbiya-bu shaxsni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan shakllantirish, yosh avlodda ijtimoiy dunyoqarashni qaror toptirishga qaratilgan uzluksiz jarayon hisoblansa, baynalmillal tarbiya-tarbiyaning o'ziga xos yo'nalishi bo'ib, bunda asosiy e'tibor shaxsdagi tolerantlik, millatlararo muloqot, hamjihatlik sifatlarini shakllantirishga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchilarning dars jarayonida vaqtni unumli tashkil etish, ularning aqliy, mehnat va ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvni qaror toptirish va mustaqil ravishda fan asoslarini o'zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda sinfdan tashqari ishlarning o'zni va roli beqiyosdir chunki o'quvchilarning jamiyat, davlat, millatga xos urf-odatlar, dastlabki ijtimoiy tasavvurlarni boshlang'ich sinflarda tez va samarali qaror topadi.

Buni boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh individual xususiyatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari idroki o'tkirligi ravshanligi, sofligi, aniqligi, hayolining yorqinligi, xotiraning kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi[4; 14-b.]. Ularning insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganligini, ota-onasi yaqinlari, atrofida uнга yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'adilar. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Ko'rinib turibdiki, mazkur yosh davrida bolalarda ma'suliyat va javobgarlik hissi ustunlik qila boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatining yetakchi shakli-bu jamoaviylik[3; 125-b.]. Chunki, jamoaviy faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda muhim shart-sharoit sifatida ko'zga tashlanadi. Xo'sh unda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar qanday bo'lishi lozim? Bunday faoliyatni tashkil etishning asosiy shartlari:

birinchidan, o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quvchilar tomonidan baravariga qabul qilinishi;

ikkinchidan, tadbirlarni o'zaro taqsimlangan holda birgalikda bajarilishi;

uchinchidan, o'zaro nazorat va ma'suliyat mavjud bo'lishi;

to'rtinchidan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tashkil etilishi va uning uning yo'ga qo'yilishini o'quvchilarning o'zlari nazorat etib borishlari kabi xususiyatlar.

Keltirilgan jihatlardan ko'rinib turibdiki, sinfdan tashqari ishlar jarayonida ana shunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yo'lga qo'yish imkoniyatlarining mavjudligini e'tiborga olsak, boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'zni muhim va ta'sirli jarayon ekanligini anglashimiz mumkin.

O'qituvchi faqat ta'lim-tarbiyaning birligi emas, balki ularning xususiyatlarini ko'ra bilishlari muhimdir. Maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan olib boriladigan ulkan ishining bir qismi xolos, u o'quvchining ilgari tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, undagi barcha yaxshi sifatlarini o'stirib, noto'g'ri tasavvurlar, odatlarni tuzatib borishi va bo'ajak sifatga zamin tayyorlashi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchi maktabni tamomlagandan keyin ham tugallanmaydi, u butun umr bo'yi davom etadi.

Kichik maktab yoshining yana bir xarakterli jihati bu davrda bolaning o'zini - o'zi boshqarishga o'tishi bilan tavsiflanadi. Mustaqillikka moyillikning rivojlanishi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Mustaqillikning shaxs xislati sifatida vujudga kelishi ijtimoiy muhitga bog'liq.

2. Mustaqillikning shaxs xislati sifatida shakllanishida individual xususiyatlar va shaxs yashaydigan, mehnat qiladigan jamoada vujudga kelgan munosabatda uning ijtimoiy faolligi namoyon bo'adi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning forma va metodlariga ega bo'ib, maxsus ravishda o'rganilishi lozim. O'quvchilarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muhim sharti ularning o'quv va o'qishdan tashqi xilma-xil faoliyatlarining birligi to'g'risidagi tushunchalar bilan bog'liqdir.

Ko'rinib turibdiki, xulosa qilib aytganda, har ikki yo'nalishda shaxs faolligi va mustaqilligining shakllanishi bevosita ijtimoiy muhit doirasida kechar ekan, bu xulosa ham boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning dolzarblik darajasini yana bir bor isbotlab, bu jarayon ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy tarbiya masalalariga jamoatchilik nuqtai nazaridan yondashish masalasini shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova, N. Raxmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" T.: Ilm-Ziyo 2009.127-b.
2. Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi "Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences)" // Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. P.221-225. Special Issue-7 (2021) <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=11965514625128930189&btnI=1&hl=ru>.
3. Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi "Boshlang'ich sinflarda inetgratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish" O'quv qo'llanma. ISBN 978-9943-8417-9-6. T.: "Tamaddun". -2022. B.125.
4. Salokhitdinova, Navruza Murodulla qizi "Providing membership between testing and international assessment programs from primary school mathematics (An example of elementary school math)" / Scientific Bulletin of Namangan State University-2020. B. 14-19. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=eufxhxgAAAJ&citation\\_for\\_view=eufxhxgAAAJ:TFP\\_iSt0sucC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=eufxhxgAAAJ&citation_for_view=eufxhxgAAAJ:TFP_iSt0sucC).
5. To'rayeva O. "Milliy qadriyatlarimiz-faxrimiz, g'ururimiz. -T.: "Chashma-Print", 2007. 121-b.